

O‘zbek jadidlari yangilanish harakatining asoschilari

Ilmiy rahbar: Djumaniyozova Maryamjon

Urganch davlat pedagogika instituti

“Milliy g’oya va falsafa” kafedrasi o’qituvchisi

Ermatova Umida Kenjaboyevna

Urganch davlat pedagogika instituti

Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi

1-kurs talabasi umidaermatova80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek jadidlaridan Fitrat, Is’hoqxon Ibrat Abdulla Avloniyning o‘tmishi, tarixi, ijtimoiy - siyosiy faoliyati yoritiladi. Ularning milliy uyg‘onish ma’rifat va taraqqiyot yo‘lidagi xizmatlari ta’lim va matbuot sohasidagi islohotlari tahlil qilinadi. Shuningdek maqolada jadid mutafakkirlarining asarlari va g‘oyalari jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri hamda ularning tarixiy merosi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье освещаются прошлое, история, общественно - политическая деятельность Фитрата, Исхак-Хана Ибрата Абдуллы Авлони из узбекских джадидов. Их заслуги в просвещении и развитии национального возрождения анализируются их реформами в сфере образования и прессы. В статье также рассматривается влияние работ и идей мыслителей джадидов на общество, а также их историческое наследие.

Annotation: this article will cover the past, history, socio - political activities of Fitrat, is’hoqkhan Ibrat Abdullah Avloni, one of the Uzbek jadids. Their services to national renaissance enlightenment and development are analyzed in the field of education and the press. The article also reflects on the impact of the works and ideas of Jadid thinkers on society and their historical heritage.

Research Science and
Innovation House



Kalit so'zlar: Ma'rifat, taraqqiyot, jamiyat, Abdulla Avloniy, Mijmar, madaniy, taraqqiyparvarlik, madrasa, Fitrat, tarbiya.

Ключевые слова: Просвещение, прогресс, общество, Абдулла авлони, Миджмар, культурный, прогресс, медресе, Фитрат, воспитание.

Keywords: Enlightenment, progress, society, Abdullah Avlani, Mijmar, culture, progress, madrasa, Fitrat, upbringing.

Ma'lumki XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda jadidchilik harakati yuzaga kelib, xalqning ma'naviy madaniy va siyosiy hayotini tubdan o'zgartirishga intilgan bir guruh ziyolilar tomonidan shakllangan. Jadidlar harakati taraqqiyparvarlik ma'rifatchilik va milliy uyg'onish g'oyalarini asos qilib olgan islohotlar harakati bo'lib uning vakillari o'z davrida xalqni ma'rifat va yangilanish sari yetaklaganlar. Jadidlar yangi turmush tarzi ma'rifiy rivojlanish va taraqqiyot orqali jamiyatni o'zgartirishni o'z oldiga maqsad qilgan edilar. Jadidlar eski usuldagi maktablar o'rniga yangi, usuldagi jadid maktablarni tashkil etganlar. Bu maktablarda arab, fors tili bilan birga rus tili va tabiiy fanlar ham o'qitila boshladi. “Qrim tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan bir nechta xorijiy tillarni bilgan turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroydagi birinchi jadid maktabiga asos solgan. Jadidchilik harakatidan faol ishtirok etgan yetakchi shaxslardan Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy kabi fidoyi adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldingi safida

Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalbi ko'ziga aylangan. Abduraufning taxallusi Fitrat bo'lib bu so'zning lug'aviy ma'nosi "yaratmoq" degan ma'noni anglatadi. Shoir talabalik yillarida ayrim g'azallariga Mijmar (chog'don xushbo'y narsalar solib tutiladigan idish) taxallusini qo'llagan bo'lsa, 1908-yildan buyon Fitrat nomiga bir umr sodiq qolgan. Abdurauf Fitrat dastlab ibtidoiy maktabda so'ngra Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil ko'rgan. Talabalik paytida mavjud ulamolardan o'zi mustaqil ravishda tahsil olgan. Fitrat talabalik yillarida xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan qator jurnal va gazetalar bilan tanishib chiqqan. Bu haqida Qozondan Buxoroga sayohat qilgan mashhur taraqqiyotparvar ulamo Abdurashid Ibrohimbek shunday yozadi: Men Buxoroda ekanman Russiyaning Qozondan kelgan ma'muri Buxoro madrasalarini taftish qila boshladi. 1907 yil



voqealariga bag'ishlangan bu xotira so'ngida ulug' alloma talabalaraning faolligiga tan berib "Buxoroning kelajagi mana shu qobiliyatli talabalar qo'lidir" degan xulosaga kelganlar. Fitrat hayotining o'ta sermazmun pallalaridan biri uning Istanbul davri bo'lgan. Fitrat xorijda o'qishni davom ettirish maqsadida borgan edi. Bu haqida turli manbalarda turlicha xabarlar mavjud. Ulardan Fitratning jumladan, Istanbul dorilfunida o'qigani, muallimlar gimnaziyasida tahsil ko'rgani haqida aytib o'tilgan. Xorijiy fitratshunoslardan birining fikriga ko'ra shu mamlakatdagi ma'rifatparvarlik harakatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Fitrat xorijdagi talabalik vaqtidayoq o'zining boshlang'ich asari "Munozara"ni yozdi. Darhaqiqat, Fitratning "Munozara" asarida shunday satrlar bor: Ushbu zamonda ham bir millatparvar olim o'zining hamjinsi va hamnavining manfaati va saodati yo'lida tekinga xizmat qilur. Is'hoqxon Ibrat jadidchilik harakatining taniqli vakillaridan biri bo'lib, u o'z faoliyatida asosan ma'rifatparvarlik yangi usuldagi maktablar ochish va islohot g'oyalarini targ'ib etishga bag'ishlagan. Is'hoqxon Ibrat 1896- yilda Namanganda yangi usuldagi jadid maktabini tashkil etgan. Bu maktabda eski maktablardan farqli o'laroq arab yozuvi bilan birga rus va boshqa tillar ham o'qitilgan. Ilg'or usullar bilan o'qitish aniq fanlarga e'tibor qaratish va amaliy ta'lim berish asosiy maqsad bo'lgan. Is'hoqxon Ibrat ko'p tilli lug'at yaratib, ma'rifiy islohotlarni ilmiy asos bilan boyitishga intilgan. Uning "Lug'at ul-ibrat" asari turkiy tillarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Is'hoqxon Ibrat jadidchilik g'oyalarining keng tarqatish uchun bosmaxona tashkil qilgan. Bu bosmaxonada turli darsliklar ilmiy ma'rifiy darsliklar, ilmiy ma'rifiy asarlar nashr etilgan. Is'hoqxon Ibrat o'z asarlarida xalqni ilm ma'rifatga chaqirgan, eski maktablarni isloh qilish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, xalq taraqqiy etishi uchun zamonaviy ta'lim va texnika bilimlariga ega bo'lish kerak. Is'hoqxon Ibrat geograf olim sifatida "Tarixi Farg'onada Farg'ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning mufassal geografik tavsiflab berdi. "Mezon uz- zamon "asari Is'hoqxon Ibrat ijodiy merosida alohida o'rin tutadi. Asar nomi alohida e'tiborni tortadi "Zamon tarozusi". Bu asarda olim zamona evrilishlar va ularga millatdoshlarning munosabati masalasiga diqqat beradi. O'z tabiri bilan aytganda bu mezon ila o'z asariga baho beradi. Professor Ulug'bek Dolimov e'tiroflicha Is'hoqxon Ibrat maktab darslar "...ko'p hollarda "Is'hoqiya bog'i "da maxsus harakatli o'yinlar tarzida o'tkazilgan. 1912-yildan xuddi shu maktabda alohida qizlar guruhini tashkil qilgan va guruhga Husayn Makayevning rafiqasi Fotiha Makayevani o'qituvchi etib tayinlagan. Is'hoqxon Ibrat zamonasining ulug' pedagogi sifatida

ta'lim tarbiya sohasida kutilgan natijaga erishmoq uchun birinchi navbatda millatning ong-u tafakkurini o'zgartirmoq zarur edi. Is'xoqxon Ibrat va boshqa va boshqa ma'rifatparvarlarimiz o'qish o'qitish sohasida joriy etgan yangiliklar ziyolilarning yangi avlodini yetishtirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Abdulla Avloniy o'zbek jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tarbiya, adabiyot va jurnalistika sohalarida katta ishlar qilgan. U o'z faoliyati davomida xalqni ilm ma'rifatga chorlab eski usul maktablarining samaradorligini tanqid qilgan va yangi usul jadid maktablarini tashkil etishga harakat qilgan. Abdulla Avloniy yoshligidanoq ilm ma'rifatga qiziqib o'z bilimini mustaqil tarzda boyitgan. Adib faqat adabiyot yoki pedagogika bilan cheklanmay teatr jurnalistika va siyosiy ma'rifiy harakatlarida ham faol qatnashgan. Abdulla Avloniy 1904- yilda o'z mablag'iga yangi usul jadid maktabini ochib, bolalarga zamonaviy ta'lim berishni yo'lga qo'ygan. Shuningdek, u Turkiston jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri sifatida gazeta va jurnallar orqali xalqni uyg'otishga harakat qilgan. Avloniyning eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri ma'rifatchilik va ta'lim islohoti edi. U eski usul maktablarining samarador emasligini tushunib yangi usul maktablarini tashkil etish tarafdori bo'lgan. "Abdulla Avloniy ta'lim sohasida quyidagi so'zlarni aytib o'tgan. Yangi usul maktablarida ilm fan geografiya, tarix matematika, tabiatshunoslik va axloqiy-tarbiya o'qitilishi lozim". Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlik faoliyatini olib borib yangi maktablar xayriya jamiyatlari kutubxona va kitob do'konlarini ochdilar. 1904- yilda Toshkentda "Shuhrat" nomli yangi usul maktabini tashkil qilgan. 1918-yilda O'zbekiston maorif tizimining asoschilaridan biri sifatida faoliyat yuritgan.

Research Science and
Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov, B. "O'zbek jadidchiligi tarixi" Toshkent:Sharq:2000
2. Ziyoyeva, A. "Jadidlar harakati va uning o'rni. Toshkent:Fan.2015
3. Karimov.I.A. O'zbek xalqlarining ma'naviy yuksalish yo'li. Toshkent: O'zbekiston. 1998
4. Is'hoqxon Ibrat, G'azallar,ilmiy va ma'rifiy maqolalar tarixiy asarlar"Zabarjad Media", 2022
5. Abdurauf Fitart, She'rlar, nasriy asarlar dramalar, publitsistika tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar "Zabarjad Media". 2022



Research Science and Innovation House

